

**YOSHLARNING MA'NAVİY YUKSALISHINI TA'MINLASHDA
MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING O'RNI**

Abdullaeva Ulbosin – magistr

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: yoshlar, ma'naviy rivojlanish, madaniyat, san'at, teatr, musiqa, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar.

Ключевые слова: молодежь, духовное развитие, культура, театр, музыка, эстетическое образование, национальные ценности.

Key words: young people, spiritual development, culture, art, theater, music, aesthetic upbringing, national values.

Madaniyat va san'at insoniyat tarixining eng qadimiy va eng muhim sohalaridan biridir. Ular nafaqat jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki har bir insonning ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy va axloqiy kamoloti esa jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarning ma'naviy yuksalishi masalasida madaniyat va san'at sohalarining o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Bu maqolada mazkur mavzuning ilmiy va amaliy jihatlari kengroq tahlil qilinadi.

***Madaniyatning yoshlar ma'naviy
rivojlanishidagi o'rni***

Madaniyat insonlarning o'zligini anglash, jamiyatdagi o'rnini topish va qadriyatlar tizimini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, yoshlar uchun madaniyat:

- Axloqiy me'yorlarni o'rgatish vositasi. Madaniy tadbirlar, milliy bayramlar va tarixiy joylarga tashriflar orqali yoshlar o'z xalqining o'tmishini, qadriyatlarini va an'alarini anglaydi.

- Milliy iftixorni shakllantiradi. Masalan, O'zbekistonning boy tarixiy merosi, me'morchilik yodgorliklari va xalq san'ati namunalarini o'rganish yoshlarni o'z milliy o'zligini his qilishga undaydi. Madaniyat orqali yoshlar turli xalqlar va millatlarning madaniyati bilan tanishib, dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bu esa ularni bag'rikeng va tushunadigan shaxs sifatida shakllantiradi.

***San'atning yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi
roli***

San'at nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki yoshlarning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga ko'maklashadi. Quyida turli san'at yo'nalishlarining yoshlar hayotiga ta'siri haqida so'z yuritamiz:

Teatr va kino san'ati

Teatr va kino yoshlarni axloqiy saboqlarga, hayotiy voqealarga teran qarashga o'rgatadi.

Realistik asarlar orqali yoshlar hayotiy muammolarni chuqurroq anglash imkoniga ega bo'lishadi. Masalan, ijtimoiy muammolarni ko'taradigan spektakllar yoki filmlar yoshlarni insonparvarlik, adolat va haqiqat uchun kurashishga ilhomlantiradi.

Musiqa san'ati

Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiluvchi kuchga ega. Milliy musiqa yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirsa, zamonaviy musiqa esa ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. O'zbek milliy cholg'ulari va maqom musiqasi yoshlarga tarixiy va milliy merosni his qilish imkonini beradi.

Adabiyot

Adabiyot yoshlarning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, klassik adabiyot namunalarini o'qish orqali ular axloqiy qadriyatlarini o'zlashtiradi va hayotga chuqurroq qarashni o'rganadi. Buyuk adiblarimiz Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriyning asarlari yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik va o'z millatini sevishtirishga undaydi.

Tasviriy san'at

Rassomchilik va amaliy san'at turlari yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Tasviriy san'at orqali ular go'zallikni qadrlashni, tabiat va jamiyatga mehr bilan qarashni o'rganadi.

O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy yuksalishini ta'minlash uchun ko'plab davlat dasturlari va loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- "Yoshlar festivali" doirasida uyushtiriladigan tadbirlar orqali yoshlar san'atga qiziqish bildirishmoqda.

- Madaniyat va san'at maktablarida minglab yoshlar turli yo'nalishlarda ijod qilish imkoniyatiga ega.

- Teatr festivallari yoshlarni san'atning jozibasini anglashga undaydi.

• “Maqom va baxshichilik san’ati” xalqaro festivali milliy qadriyatlarni tiklash va yoshlar orasida tarqatishga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun takliflar

Madaniyat va san’atni ommalashtirish: Yoshlar orasida teatr, musiqa va boshqa san’at turlariga qiziqishni oshirish uchun ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish lozim.

Ta’lim tizimiga san’atni keng joriy etish: Maktab va oliy o’quv yurtlarida san’at va madaniyat yo’nalishidagi darslarni majburiy o’quv dasturiga kiritish zarur.

Madaniy tadbirlar sonini oshirish: Yoshlar uchun milliy va xalqaro ko’rgazmalar, festivallar va konsertlar tashkil qilish orqali ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mumkin.

Ijodkor yoshlarni qo’llab-quvvatlash: Yosh rassomlar, yozuvchilar va musiqachilar uchun grantlar va mukofotlar ta’sis etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmon Qoraboyev va G’ayrat Soatov “O‘zbekiston madaniyati”.
2. A.Qayumov “Yoshlar tarbiyasida moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi masalalari”.
3. M.Imomnazarov, M.Eshmuhamedova “Milliy ma’naviyatimiz asoslari”.
4. M.Hamdanova “Milliy g‘oya asosida uzluksiz ta’lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari”.
5. S.Otamurotov “O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar”.
6. Research Gate Sayt: <https://www.researchgate.net> (<https://www.researchgate.net/>).
7. Science Direct Sayt: <https://www.sciencedirect.com> (<https://www.sciencedirect.com/>).

REZYUME. Madaniyat va san’at yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun qudratli vositadir. Ular nafaqat yoshlarning shaxsiy salohiyatini rivojlantiradi, balki jamiyatning umumbashariy qadriyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. Мощный инструмент для духовного развития молодых людей культуры и искусства. Они не только развивают личный потенциал молодых людей, но и служат для формирования универсальных ценностей общества.

SUMMARY. Culture and art is a powerful tool for the spiritual development of young people. They not only develop the personal potential of young people, but also serve to form the universal values of society.

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍNDÁ KITAPXANA TARAWÍNDÁ ÁMELGE ASÍRÍLÍP ATÍRĠAN REFORMALAR

Xudaybergenova Marjan Baltabaevna – oqituvshi

Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali

Tayanish sózler: kitapxana reformalari, malimleme-kitapxana oraylari, cifrlı texnologiyalar, malimleme resurslari, elektron kitapxanalar, kitapxana sisteması.

Ключевые слова: библиотечные реформы, информационно-библиотечные центры, цифровые технологии, информационные ресурсы, электронные библиотеки, библиотечная система.

Key words: library reforms, information and library centers, digital technologies, information resources, electronic libraries, library system.

Kitapxanalar jamiyettin ruwxıy hám ilimiy-intellektual rawajlanıwında áhmiyetli orın tutadı. Olar xalıqtın informaciyağa bolğan talabın qanaatlandıruw, ilim hám bilimlendiriw tarawınıń rawajlanıwına xızmet etiw, kitapqumarlıq mádeniyatın qalıplestiriw sıyaqlı wazıypalardı orınladı. Ózbekstan Respublikasında da kitapxana sistemasın rawajlandıruw, zamanagóy malimleme texnologiyaların engiziw hám kitapxana xızmetlerin jetilistiriw baǵdarında keń kólemlı reformalar alıp barılmaqta. Mámlekette

kitapxanalar jumısın jetilistiriw boyınsha Prezident pırmanları, húkimet qararları hám tiyisli baǵdarlamalar islep shıǵılǵan bolıp, olardıń tiykarǵı maqseti kitapxana infrastrukturasını modernizaciyalaw, elektron kitapxanalardı keńeytiw, zamanagóy malimleme-kitapxana xızmetlerin jolǵa qoyıwdan ibarat. Ásirese, malimleme texnologiyalarınıń jedel rawajlanıwı kitapxanashılıq tarawında sanlastırıw processlerin jedellestiriwdi talap etpekte. Usı maqalada Ózbekstan Respublikasında kitapxana sistemasın rawajlandıruwǵa qaratilǵan reformalar, olardıń